2026-yil
9(2)-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(2)-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(2)-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Boboyeva Sayyora Boboradjabovna, psixologiya fanlari doktori, professor, Tojikiston
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

Turaxonov Abdukarim Eshkuziyevich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI

Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI

Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(2)-son

UDK 394.3(575.1)

Begmatova Oydina Xolmuratovna,
Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

XALQ O‘YINLARINING AN’ANAVIY BAYRAM VA MAROSIMLAR BILAN BOG‘LIQLIGI

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek xalq o‘yinlarining an’anaviy bayram va marosimlar bilan tarixiy-funksional aloqasi tahlil qilinadi. Xalq o‘yinlarining Navro‘z, mavsumiy sayillar, hosil bilan bog‘liq tantanalar, to‘ylar va jamoaviy yig‘inlardagi o‘rni ularning o‘tkazilish vaqti, makoni, ishtirokchilar tarkibi hamda funksional xususiyatlari asosida ochib beriladi. Tadqiqotda o‘yin, bayram va marosim bir-biriga yaqin, biroq mazmun va vazifasi jihatidan farqlanuvchi madaniy hodisalar sifatida qaraladi. Manbalar tahlili xalq o‘yinlarining mavsumiy, musobaqaviy-tomosha, kommunikativ-integrativ, tarbiyaviy va madaniy-translyatsion funksiyalarini ajratish imkonini berdi. Shuningdek, an’anaviy o‘yinlarning zamonaviy etnosport va festival amaliyotiga moslashuvi jarayonida ularning tarixiy kontekstini saqlash masalalariga e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: xalq o‘yinlari, an’anaviy bayram, marosim, Navro‘z, sayil, ko‘pkari, kurash, poyga, etnosport, nomoddiy madaniy meros.

СВЯЗЬ НАРОДНЫХ ИГР С ТРАДИЦИОННЫМИ ПРАЗДНИКАМИ И ОБРЯДАМИ

Аннотация. В статье рассматривается историко-функциональная связь узбекских народных игр с традиционными праздниками и обрядами. Анализируется место народных игр в структуре Навруза, сезонных народных гуляний, праздников, связанных с завершением хозяйственного цикла, свадеб и коллективных собраний с учётом времени, места проведения, состава участников и выполняемых функций. Игра, праздник и обряд рассматриваются как взаимосвязанные, но не тождественные культурные явления. На основе анализа источников систематизированы сезонная, состязательно-зрелищная, коммуникативно-интегративная, воспитательная и культурно-трансляционная функции народных игр. Особое внимание уделено сохранению исторического контекста традиционных игр в современных этноспортивных и фестивальных практиках.

Ключевые слова: народные игры, традиционный праздник, обряд, Навруз, народное гуляние, купкари, кураш, скачки, этноспорт, нематериальное культурное наследие.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9(2)-son

THE RELATIONSHIP BETWEEN FOLK GAMES AND TRADITIONAL FESTIVALS AND RITUALS

Abstract. The article examines the historical and functional relationship between Uzbek folk games and traditional festivals and rituals. The role of folk games in Navruz, seasonal festivities, celebrations associated with the completion of the agricultural cycle, weddings, and communal gatherings is analysed in terms of time, place, participants, and functions. Games, festivals, and rituals are considered interconnected but distinct cultural phenomena. The analysis of relevant sources makes it possible to identify the seasonal, competitive-spectacular, communicative-integrative, educational, and cultural-transmission functions of folk games. The article also considers the preservation of the historical context of traditional games in contemporary ethnosport and festival practices.

Keywords: folk games, traditional festival, ritual, Navruz, folk festivity, kupkari, kurash, horse racing, ethnosport, intangible cultural heritage.

Kirish. Xalq o‘yinlari o‘zbek xalqining tarixiy turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati, jamoaviy munosabatlari va madaniy tajribasi bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Shu sababli ularni faqat jismoniy mashq yoki ko‘ngilochar faoliyat sifatida baholash ularning tarixiy va ijtimoiy mazmunini to‘liq ochib bermaydi. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi milliy ro‘yxatida xalq o‘yinlari kelib chiqishi va bajarilish xususiyatlariga ko‘ra ovchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, dehqonchilik, taqlidiy, harakatli, so‘z, yig‘in, kurash va chavandozlik o‘yinlariga ajratilgan. Chavandozlik o‘yinlari qatorida chavgon, uloq-ko‘pkari, poyga, oltin qoboq va qiz quvish, dehqonchilik bilan bog‘liq o‘yinlar orasida esa palaxmon, somon sepdi, chanoq o‘yin va qo‘riqchi kabi shakllar qayd etiladi [1].

Mazkur tasnif xalq o‘yinlarining muayyan xo‘jalik va ijtimoiy faoliyatdan ajralmagan holda rivojlanganini ko‘rsatadi. Biroq ularning tarixiy hayotiy muhiti mehnat jarayoni bilangina cheklanmagan. Navro‘z, mavsumiy sayillar, hosil bilan bog‘liq tantanalar, to‘ylar va jamoaviy yig‘inlar xalq o‘yinlarining ommaviy tarzda namoyon bo‘lishi uchun muhim ijtimoiy-madaniy muhit vazifasini bajargan [2, 54–55-b.].

Shu jihatdan o‘yin, bayram va marosim tushunchalarini aynanlashtirmaslik muhimdir. O‘yin ayrim hollarda marosimiy harakatning tarkibiy qismi bo‘lgan bo‘lsa, boshqa vaziyatlarda bayramning musobaqaviy, tomoshaviy yoki rekreativ qismini tashkil etgan. Demak, o‘yinning bayram yoki marosim doirasida bajarilishi uning avtomatik ravishda marosimiy hodisaga aylanishini anglatmaydi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbek xalq o‘yinlarining tarixiy shakllanishi, tasnifi va tarbiyaviy imkoniyatlari T.S. Usmanxodjayev, Sh.X. Isroilov, A.A. Pulatov va Sh.A. Pulatov tadqiqotlarida yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda xalq o‘yinlari mehnat,

chorvachilik, dehqonchilik, harbiy-amaliy tayyorgarlik va jamoaviy turmush bilan bog‘liq faoliyat sifatida ko‘rib chiqiladi [4].

A. Atamuxamedov xalq bayramlarida o‘yin elementlarining tutgan o‘rnini alohida tadqiq etib, o‘yin faoliyatining bayram mazmunini shakllantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi [5, 92–95-b.]. O.D. Nishanova o‘zbek xalqining rekreativ an’analarini kalendar bayramlari, mavsumiy sayillar va tabiat bilan bog‘liq hordiq shakllari doirasida o‘rganadi [6]. A.A. Sarimsokov Farg‘ona vodiysi Navro‘z an’analarini tahlil qilib, undagi jamoaviy marosimlar, sayil, tomosha va o‘yinlarga oid faoliyatlarni qayd etadi [7, 14–20-b.]. Z. Abidova Xorazm vohasidagi mavsumiy marosimlarni hosildorlik, tabiatning yangilanishi va agrar tasavvurlar bilan bog‘laydi [8, 131–137-b.].

Bolalar o‘yinlarining tarbiyaviy va madaniy-translyatsion xususiyatlari F.U. Eshkobilova tadqiqotida yoritilgan. Muallif bolalar folklor o‘yinlarining qadriyat va an’analarni avloddan avlodga yetkazish, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish hamda jismoniy va emotsional rivojlanishdagi rolini ko‘rsatadi [9, 125–130-b.]. O. Artikbayev esa Toshkent vohasidagi o‘zbek va qozoq an’anaviy bellashuvlarini etnik xotira, kollektiv qadriyatlar, madaniy almashinuv va jamoaviy birdamlik bilan bog‘liq holda tahlil qiladi [10].

Mavjud tadqiqotlarda xalq o‘yinlarining kelib chiqishi, tasnifi, tarbiyaviy ahamiyati, Navro‘z va sayillar bilan aloqasi hamda zamonaviy etnosportga transformatsiyasi turli jihatlardan o‘rganilgan. Mazkur maqolada esa xalq o‘yinlarining an’anaviy bayram va marosimlar tarkibidagi funksional o‘rni yaxlit tizim sifatida tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning obyekti o‘zbek xalqining an’anaviy o‘yin madaniyati, predmeti esa xalq o‘yinlarining bayram, sayil va marosimlar bilan tarixiy-funksional aloqasidir. Tadqiqotda tarixiy-etnografik tahlil, qiyoslash, mazmuniy guruhlash, funksional tahlil va ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Xalq o‘yini va bayram-marosim aloqasini aniqlashda o‘yinning o‘tkazilish vaqti va mavsumiyligi, makoni, ishtirokchilar tarkibi, musobaqaviy va tomoshaviy xususiyatlari, kommunikativ imkoniyatlari hamda madaniy tajribani uzatishdagi o‘rni asosiy mezon sifatida belgilandi.

Tahlilda ikki holat farqlandi: birinchisi, ramziy yoki ritual amal bilan bevosita bog‘langan marosimiy o‘yinlar; ikkinchisi, bayram yoki marosim jarayonida hordiq, bellashuv, tomosha va muloqot vositasi sifatida bajariladigan o‘yinlar. Bunday farqlash xalq o‘yinlarining tarixiy-madaniy maqomini aniqroq belgilash imkonini beradi.

Natijalar va ularning tahlili

Xalq o‘yinlari va bayramning tarixiy-funksional aloqasi

Xalq o‘yinlarining mazmunida xalqning tarixiy xo‘jalik faoliyati va ijtimoiy hayoti aks etadi. O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatidagi ovchilik,

chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan bog‘liq o‘yinlar buni tasdiqlaydi [1].

T.S. Usmanxodjayev va hammualliflar ko‘pkari-uloq, poyga, qiz quvmoq, ag‘darish, otda qilichlashish va chavgon kabi chavandozlik o‘yinlari keng tarqalganini qayd etadilar. Shuningdek, o‘g‘il uylantirish, qiz chiqarish, sunnat to‘ylari, Navro‘z, hosil yig‘imi bayramlari va turli sayillarda ko‘pkari, poyga, qiz quvish, kurash va boshqa bellashuvlar o‘tkazilgani ko‘rsatiladi [4, 20; 30-b.].

Bu ma’lumotlar bayramlarning xalq o‘yinlari uchun muhim ijro muhiti bo‘lganini ko‘rsatadi. Bayram jamoaning bir makonda yig‘ilishini ta’minlagan bo‘lsa, o‘yin mazkur yig‘inning faol, musobaqaviy va tomoshaviy qismini tashkil etgan.

Navro‘z va mavsumiy sayillarda xalq o‘yinlari

Xalq o‘yinlari va bayramlar o‘rtasidagi eng barqaror aloqalardan biri mavsumiylik bilan bog‘liq. Kalendar bayramlarining muayyan fasl va xo‘jalik sikliga mos kelishi o‘yinlarning bajarilish sharoitiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Bahor va yoz oylaridagi ochiq maydonlarda o‘tkaziladigan sayillar jismoniy bellashuvlar va ommaviy o‘yinlar uchun qulay sharoit yaratgan.

Navro‘z bu jihatdan alohida ahamiyatga ega. A.A. Sarimsokov Farg‘ona vodiysi Navro‘zida sumalak tayyorlash, qozon to‘ldi, arg‘imchoq uchish, tomoshalar va yer haydash bilan bog‘liq amallarni qayd etadi [7, 14–20-b.]. Biroq mazkur faoliyatlarning barchasini xalq o‘yini sifatida baholash to‘g‘ri emas. Masalan, sumalak tayyorlash marosimiy-jamoaviy amaliyot bo‘lsa, arg‘imchoq uchish o‘yin-rekreativ faoliyat, ommaviy tomoshalar esa bayramning performativ qismidir.

Navro‘z kunlari kurash, tosh ko‘tarish, arqon tortish, ko‘pkari-uloq, poyga va otdan ag‘darish kabi bellashuvlarning tashkil etilgani ham manbalarda qayd etilgan [4, 94-b.]. Bolalar esa berkinmachoq, durra soldi, kim keldi, ovozdan top kabi o‘yinlarda qatnashgan [4, 94-b.].

Shunday qilib, Navro‘z xalq o‘yinlarining yagona sababi emas, balki ularning ommaviy ijro etilishini ta’minlagan ijtimoiy-madaniy muhit sifatida namoyon bo‘ladi.

Mavsumiy sayillarda ham o‘yin, qo‘shiq, raqs va tomosha bir-birini to‘ldirgan. Yalpiz sayli, Gul sayli, Tog‘ sayli, Bog‘ sayli va Dala sayli kabi an’anaviy yig‘inlar jamoaviy hordiq va muloqot uchun makon yaratgan [6]. Bunday sharoitda ishtirokchi va tomoshabin o‘rtasidagi chegara nisbatan ochiq bo‘lgan: tomoshabin keyingi bellashuvda ishtirokchiga aylanishi mumkin edi.

To‘ylar va oilaviy tantanalardagi o‘yinlar

To‘ylar xalq o‘yinlarining muhim ijro muhitlaridan biri bo‘lgan. O‘g‘il uylantirish, sunnat to‘ylari va boshqa oilaviy tantanalarda ko‘pkari, kurash, poyga, qiz quvish va piyoda poyga kabi bellashuvlar tashkil etilgan [4, 30-b.].

Mazkur o‘yinlarni nikoh yoki sunnat marosimining ritual yadrosi bilan aynanlashtirish mumkin emas. Ularning asosiy vazifalari tantananing

ommaviyligini kuchaytirish, ishtirokchilar mahoratini namoyon etish, mehmonlarni faol tomoshaga jalb qilish va jamoaviy muloqotni kuchaytirishdan iborat bo‘lgan.

Ko‘pkari, poyga va kurashning o‘ziga xos jihati shundaki, ularda jismoniy mahorat bilan bir qatorda tomoshaviylik ham muhim o‘rin egallagan. O. Artikbayev bunday bellashuvlarning etnik xotira, kollektiv qadriyatlar, madaniy almashinuv va jamoaviy birdamlik bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi [10].

Xalq o‘yinlarining funksional differensiallashuvi

Xalq o‘yinlarining bayram va marosimlar bilan aloqasini quyidagi asosiy funksiyalar orqali tizimlashtirish mumkin:

Bayram yoki marosim muhiti	**O‘yin va faoliyat shakllari**	**Asosiy aloqa**	**Funksional mazmuni**
Navro‘z	Kurash, arqon tortish, ko‘pkari, poyga, arg‘imchoq, harakatli o‘yinlar	Mavsumiy, tomoshaviy, kommunikativ	Jamoaviy ishtirok, hordiq, kuch va mahoratni namoyish etish
Mavsumiy sayillar	Harakatli o‘yinlar, kurash, poyga, guruh bellashuvlari	Makoniy, rekreativ, kommunikativ	Muloqot, hordiq va jamoaviy faollikni ta’minlash
Hosil va xo‘jalik bayramlari	Kurash, poyga, ko‘pkari, ommaviy o‘yinlar	Mavsumiy-xo‘jalik, musobaqaviy	Mehnat sikli yakunini nishonlash va jamoaviy hordiq
To‘y va oilaviy tantanalar	Ko‘pkari, kurash, poyga, qiz quvish	Tomoshaviy, ijtimoiy	Tantanani ommaviylashtirish va mehmonlarni birlashtirish
Yig‘in va gashtaklar	Guruh va so‘z o‘yinlari	Kommunikativ-integrativ	Muloqot va o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish
Bolalar ishtirokidagi bayramlar	Harakatli, yashirinmachoq va guruh o‘yinlari	Tarbiyaviy, madaniy-translyatsion	Qoidalar va an’anaviy repertuarni avlodlarga yetkazish

Jadvaldan ko‘rinadiki, bir xil o‘yin turli vaziyatlarda turlicha funksional mazmun kasb etishi mumkin. Masalan, kurash to‘yda tomoshaviy va ijtimoiy vazifani, Navro‘zda esa mavsumiy va jamoaviy vazifani kuchliroq namoyon qilishi mumkin. Shu sababli xalq o‘yinlarini tasniflashda faqat o‘yin nomi va texnik qoidalarini emas, uning ijro kontekstini ham hisobga olish zarur.

Xalq o‘yinlarining tarbiyaviy va madaniy-translyatsion funksiyasi

An’anaviy o‘yinlarning tarixiy barqarorligi faqat ularning ko‘ngilochar xususiyati bilan izohlanmaydi. O‘yin jarayonida qoidaga rioya qilish, navbatni kutish, raqibni tan olish, jamoa bilan hamkorlik qilish, g‘alaba va mag‘lubiyatni qabul qilish kabi ijtimoiy xulq shakllari amaliy tarzda o‘zlashtirilgan.

O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi tavsifida o‘yin qoidalarining ishtirokchilar harakati va o‘zaro munosabatlarini tartibga solishi hamda iroda va

xarakterni tarbiyalashi qayd etiladi [1]. F.U. Eshkobilova ham bolalar folklor o‘yinlarining ijtimoiy muloqot, jismoniy, emotsional va kognitiv rivojlanish bilan bir qatorda qadriyat va an’analarni avlodlarga yetkazishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi [9, 125–130-b.].

Bayram va sayillar mazkur jarayonning takroriyligini ta’minlagan. Bola kattalar bellashuvini kuzatgan, o‘z yoshiga mos o‘yinda qatnashgan va o‘yin qoidalarini kattalar yoki tengdoshlaridan amaliy ravishda o‘zlashtirgan. Shu tariqa xalq o‘yinlarining avlodlararo uzatilishi faqat og‘zaki ma’lumot orqali emas, balki bevosita ishtirok va ijro orqali amalga oshgan.

An’anaviy o‘yinlarning zamonaviy etnosportga transformatsiyasi

Bugungi kunda xalq o‘yinlarining ayrim shakllari sport, etnosport, festival va ommaviy madaniy tadbirlar tarkibida davom etmoqda. Bunday jarayon o‘yinlarning saqlanishi va ommalashuviga xizmat qilishi bilan birga, ularning tarixiy ijro muhitida ayrim o‘zgarishlarni ham yuzaga keltiradi.

Sportlashtirilgan shaklda qoidalarni standartlashtirish, natijani aniq hisoblash, hakamlik mezonlari va musobaqa reglamenti muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy bayram sharoitida esa tomoshaviylik, jamoaviy qatnashish, mahalliy variantlar va urf-odatlar bilan aloqadorlik ustuvor bo‘lgan.

Y.A. Turdimuratov etnosportni an’anaviy xalq o‘yinlarining madaniy asoslarini saqlagan holda rivojlantirish masalasi bilan bog‘laydi [3, 537–544-b.]. Shu nuqtai nazardan, xalq o‘yinlarini zamonaviy festival va sport dasturlariga kiritishda ularning zamonaviy musobaqaviy shakli bilan tarixiy bayram-marosimdagi vazifalarini farqlash muhimdir.

Muhokama. Manbalar tahlili xalq o‘yinlarining an’anaviy bayram va marosimlar bilan aloqasi besh asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi.

Birinchidan, mavsumiy-vaqt aloqasi mavjud. O‘yinlarning bajarilishi yil fasllari, Navro‘z va xo‘jalik sikli bilan bog‘langan. Mavsum nafaqat o‘yinning vaqtini, balki uning jamoaviy kontekstini ham belgilagan.

Ikkinchidan, makoniy aloqa kuzatiladi. Ko‘pkari va poyga kabi chavandozlik bellashuvlari keng ochiq maydonlarni talab qilgan bo‘lsa, bolalar va so‘z o‘yinlari hovli, mahalla yoki kichik guruh doirasida ham bajarilgan.

Uchinchidan, musobaqaviy-tomosha funksiyasi kurash, ko‘pkari, poyga va kuch sinashish kabi bellashuvlarda yaqqol namoyon bo‘lgan. Bu jarayonda g‘oliblik bilan birga bellashuvning tomoshaviy ahamiyati ham muhim bo‘lgan.

To‘rtinchidan, kommunikativ-integrativ funksiya o‘yinning turli yosh va ijtimoiy guruh vakillarini bevosita muloqotga kiritishida ko‘rinadi. Ishtirokchi, tomoshabin, tashkilotchi va boshqa qatnashchilar yagona ijtimoiy-madaniy makonda faoliyat yuritgan.

Beshinchidan, tarbiyaviy va madaniy-translyatsion funksiya orqali o‘yin qoidalari, harakat usullari, ijtimoiy munosabatlar va madaniy qadriyatlar avloddan avlodga yetkazilgan.

Mazkur funksiyalarni hisobga olish o‘yin, bayram va marosim tushunchalarini bir-biridan farqlash imkonini beradi. Muayyan o‘yinning Navro‘z yoki to‘yda bajarilishi uni o‘z-o‘zidan marosimiy hodisaga aylantirmaydi. Uning mazmuni va funksiyasi aynan qaysi vaziyatda, kimlar tomonidan va qanday maqsadda bajarilganiga qarab belgilanadi.

Xulosa. O‘zbek xalq o‘yinlarining an’anaviy bayram va marosimlar bilan aloqasi xalqning tarixiy va etnomadaniy hayotida shakllangan barqaror munosabatlardan biridir. Navro‘z, mavsumiy sayillar, hosil bilan bog‘liq tantanalar, to‘ylar va jamoaviy yig‘inlar xalq o‘yinlarining ommaviy ijrosi uchun vaqt, makon va ijtimoiy sharoit yaratgan. O‘yinlar esa mazkur tadbirlarning faol ishtirok, bellashuv, tomosha va muloqot xususiyatlarini kuchaytirgan.

Tadqiqot natijalari xalq o‘yinlarining bayram-marosim tizimidagi funksiyalarini mavsumiy, musobaqaviy-tomosha, kommunikativ-integrativ, tarbiyaviy va madaniy-translyatsion yo‘nalishlarda guruhlash mumkinligini ko‘rsatdi. Bunda o‘yinning tarixiy mazmuni faqat uning qoidalari yoki texnik bajarilishidan iborat emas. O‘yin o‘tkazilgan vaqt, makon, ishtirokchilar tarkibi, ijtimoiy muhit va bajarilgan vazifa ham uning tarixiy mazmunini tashkil etadi.

Shuningdek, bayram tarkibidagi barcha faoliyatlarni xalq o‘yini sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan asosli emas. Masalan, sumalak tayyorlash, qozon to‘ldi yoki yer haydash bilan bog‘liq amallar marosimiy mazmunga ega bo‘lsa, kurash, ko‘pkari, poyga va ayrim harakatli o‘yinlar bayramning musobaqaviy, tomoshaviy yoki rekreativ qatlamini tashkil etgan.

An’anaviy o‘yinlarning zamonaviy etnosport va festival amaliyotida davom etishi ularni saqlashning muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, zamonaviy sportlashtirilgan variant bilan o‘yinning tarixiy bayram-marosim kontekstini farqlash zarur. Xalq o‘yinlarini zamonaviy sharoitda rivojlantirish jarayonida ularning mahalliy variantlari, an’anaviy atamalari, ijro muhiti va tarixiy vazifalari haqidagi ma’lumotlarni saqlash ilmiy va madaniy jihatdan muhimdir.

Amaliy tavsiyalar. Xalq o‘yinlarini hujjatlashtirishda ularning nomi va texnik qoidalari bilan bir qatorda o‘yin qaysi hududda, qaysi faslda, qanday bayram yoki marosimda va qanday ishtirokchilar tarkibida bajarilgani ham qayd etilishi lozim.

Navro‘z, folklor va etnosport festivallarida xalq o‘yinlarini namoyish etishda hududiy variantlar, an’anaviy atamalar, musiqa, tomosha va marosim bilan bog‘liq unsurlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Ta’lim jarayonida xalq o‘yinlarining jismoniy-tarbiyaviy imkoniyatlari bilan bir qatorda ularning bayram-marosim madaniyatidagi tarixiy o‘rnini ham o‘rgatish zarur.

Hududlar kesimida “xalq o‘yini – bayram – marosim” munosabatlarini aks ettiruvchi etnografik kataloglar yaratish, katta avlod vakillarining xotiralarini yozib olish hamda o‘yinlarni audio-video shaklda hujjatlashtirish ularning nafaqat texnik, balki kontekstual mazmunini ham saqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi UNESCO ishlari bo‘yicha Milliy komissiyasi. Xalq o‘yinlari // O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosi milliy ro‘yxati. – 02.06.05-element.

2. National Commission of Uzbekistan for UNESCO. Intangible Cultural Heritage of Uzbekistan. – Tashkent, 2016. – P. 54–55.

3. Turdimuratov Y.A. Etnosport – xalq o‘yinlarini ommalashtirishning muhim omili sifatida // Modern Science and Research. – 2025. – Vol. 4, Issue 1. – B. 537–544. – DOI: 10.71337/inlibrary.uz.science-research.62212.

4. Usmanxodjayev T.S., Isroilov Sh.X., Pulatov A.A., Pulatov Sh.A. Milliy va harakatli o‘yinlar: darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2015. – 268 b.

5. Атамухамедов А. Игровые элементы как атрибут народных праздников // O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti xabarlari. – 2018. – № 3(7). – С. 92–95.

6. Nishanova O.D. Recreative Traditions of Uzbek Nation // Asian Studies. – 2019. – Vol. 37, Issue 2. – P. 1–6.

7. Sarimsokov A.A. Navruz: Customs and Ceremonies // Central Asian Journal of Social Sciences and History. – 2024. – Vol. 5, No. 2. – P. 14–20. – DOI: 10.51699/cajssh.v5i2.1068.

8. Abidova Z. Seasonal Rituals Held at Shrines among the Inhabitants of the Khorezm Oasis // Oriental Journal of History, Politics and Law. – 2025. – Vol. 5, No. 1. – P. 131–137. – DOI: 10.37547/supsci-ojhpl-05-01-17.

9. Eshkobilova F. Children’s Traditional Folklore Games in English and Uzbek Culture // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal. – 2024. – Vol. 5, No. 2. – P. 125–130. – DOI: 10.37547/mesmj-V5-I2-17.

10. Artikbayev O. National Folk Games and Traditional Competitions as an Important Factor of Uzbek-Kazakh Ethnocultural Relations in the Tashkent Oasis // Sport ilm-fanining dolzarb muammolari. – 2026.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9(2)-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694